IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

KORXONALARDA FOYDA SOLIG‘I HISOBI VA HISOBOTINI IAS 12 STANDARTI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ermamatov Temurbek Narzulla o‘g‘li
Bank-moliya akademiyasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23214741

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish sharoitida IAS 12 “Foyda soliqlari” standartini qo‘llashning metodologik muammolari tadqiq etilgan. Soliq kodeksi, IAS 16, IAS 20 va IAS 12 normalarining qiyosiy tahlili hamda balans usulidagi modellashtirish asosida uchta natija olingan. Birinchidan, asosiy vositalar bo‘yicha vaqtinchalik farqlarning yuzaga kelishi buxgalteriya va soliq amortizatsiyasi normalari nisbatiga, amortizatsiya usuliga va tugatish qiymatiga bog‘liq. Ikkinchidan, budjet mablag‘lari hisobiga yaratilgan aktivlar bo‘yicha kechiktirilgan soliq mablag‘ning huquqiy shakli va berilish shakliga bog‘liq: ustav kapitaliga hissa vaqtinchalik farq keltirib chiqarmaydi, pul shaklidagi grantga dastlabki tan olish istisnosi qo‘llanadi, grantlar orasida esa 22A-band faqat haqqoniy qiymatda aks ettirilgan natura shaklidagi grantlarga tatbiq etiladi. Natijalar asosida korxonalar, uchun takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: IAS 12, foyda solig‘i, kechiktirilgan soliq, vaqtinchalik farqlar, amortizatsiya, davlat grantlari, IAS 20, dastlabki tan olish istisnosi, Soliq kodeksi, MHXS.

Kirish

O‘zbekistonda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga (MHXS) o‘tkazish izchil davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. PQ-4611-son qaror bilan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar uchun 2021-yildan MHXS asosida hisob yuritish belgilandi (O‘zR Prezidenti, 2020). 2022-yilda IAS 12 ning rasmiy o‘zbek tilidagi matni tan olindi (O‘zR Moliya vazirligi, 2022), 2025-yildan yangi buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) kuchga kirdi (O‘zR IMV, 2024a), 2027-yildan esa yangi Konseptual asos amal qiladi (O‘zR IMV, 2026). Bu jarayonda foyda solig‘i hisobi alohida murakkablikka ega. IAS 12 aktiv va majburiyatlarning balans qiymati bilan soliq bazasi o‘rtasidagi vaqtinchalik farqlardan kechiktirilgan soliq aktivlari (KSA) va kechiktirilgan soliq majburiyatlarini (KSM) tan olishni talab qiladi (IASB, 2023a). Milliy tizim esa asosan joriy soliqni aniqlashga yo‘naltirilgan.

Xalqaro adabiyotlarda kechiktirilgan soliq keng o‘rganilgan. Hanlon va Heitzman (2010) buxgalteriya va soliq foydasi o‘rtasidagi farqlarni soliq tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida tizimlashtirgan. Phillips, Pincus va Rego (2003) kechiktirilgan soliq xarajatining foyda boshqaruvini aniqlashdagi axborot qiymatini asoslagan. Görlitz va Dobler (2023) uch o‘n yillik empirik tadqiqotlarni umumlashtirib, kechiktirilgan soliq moddalarining qiymat dolzarbligini tasdiqlagan va tadqiqotlar asosan AQSh ma’lumotlariga tayanishini qayd etgan. Kvaal va Nobes (2010) MHXS doirasida ham milliy ananalar saqlanib qolishini, Nobes va Parker (2020) esa moliyaviy hisobot va soliqqa tortish o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi hisob tizimlarini farqlovchi asosiy omil ekanini ko‘rsatgan. Rivojlanayotgan iqtisodiyot misolida Okenwa, Egbunike va Abiahu (2017) Nigeriyada IAS 12 qabul qilingach kechiktirilgan soliq

ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘zgarish yuz berganini aniqlagan. O‘zbekistonda Kurbonov (2026) tafovutlarning asosiy manbai sifatida Soliq kodeksining 306 va 317-moddalarini ko‘rsatgan, Obidxonov (2026) esa milliy standartlarning daromad-xarajat yondashuviga tayanishini qayd etgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda uch masala ochiq qolmoqda. Birinchisi, vaqtinchalik farqlar hajmining korxona amortizatsiya siyosatiga bog‘liqligi. Ikkinchisi, budjet mablag‘lari hisobiga yaratilgan aktivlar bo‘yicha Soliq kodeksi, IAS 20 va IAS 12 normalarining o‘zaro ta’siri. Uchinchisi, IAS 12 rasmiy tarjimasining amaldagi tahrirga muvofiqligi. Maqolaning maqsadi shu masalalarni tahlil qilish va foyda solig‘i hisobi hamda hisobotini IAS 12 asosida takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Metodlar

Tadqiqotda me’yoriy-qiyosiy tahlil, modellashtirish va matnli solishtirish usullari qo‘llanildi. Me’yoriy baza sifatida IAS 12 ning rasmiy o‘zbek tilidagi matni va IASB e’lon qilgan amaldagi asl matni, IAS 16, IAS 20 va IFRS 1 (IASB, 2023c) hamda Soliq kodeksining XII bo‘limi (2026-yil 1-yanvar holatiga) o‘rganildi. Tadqiqot MHXS qo‘llovchi korxonalarga qaratilgani uchun buxgalteriya amortizatsiyasi IAS 16 asosida tahlil qilindi. Standartlarning band va kichik band belgilari asl matn bo‘yicha keltirildi.

Birinchi bosqichda Soliq kodeksi va MHXS ning asosiy vositalar, qayta baholash, soliq zararlari va davlat mablag‘lariga nisbatan qoidalari yonma-yon qo‘yildi. Ikkinchi bosqichda kechiktirilgan soliqning shakllanishi IAS 12 ning balans usuli bo‘yicha shartli raqamli misollarda modellashtirildi. Vaqtinchalik farq (VF) aktivning balans qiymati (BQ) va soliq bazasi (SB) o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanib (VF = BQ − SB), 15 foizlik umumiy stavkaga (Soliq kodeksining 337-moddasi) ko‘paytirildi. Har bir holatda dastlabki tan olish istisnosi (15(b) va 24-bandlar) va 22A-bandning qo‘llanish shartlari alohida tekshirildi. Uchinchi bosqichda IAS 12 rasmiy tarjimasi asl matn bilan bandma-band solishtirildi.

Natijalar

Amortizatsiya siyosati va vaqtinchalik farqlar. Soliq kodeksining 306-moddasiga ko‘ra soliq amortizatsiyasi guruhlar bo‘yicha belgilangan eng yuqori normalar (5–40%) asosida to‘g‘ri chiziqli usulda hisoblanadi, soliq to‘lovchi esa pastroq normani qo‘llashga haqli (O‘zR Soliq kodeksi, 2019). IAS 16 ga ko‘ra buxgalteriya amortizatsiyasi aktivning foydali xizmat muddati, tugatish qiymati va iqtisodiy naflarni iste’mol qilish tartibiga mos usul asosida hisoblanadi (50–62-bandlar). Tahlil shuni ko‘rsatdiki, farqning yuzaga kelishi uch omilga bog‘liq: buxgalteriya normasi bilan soliqdagi eng yuqori norma o‘rtasidagi nisbat, amortizatsiya usuli va tugatish qiymati (1-jadval).

Buxgalteriya normasi soliqdagi eng yuqori normadan yuqori bo‘lsa, chegiriladigan farq muqarrar yuzaga keladi. Past bo‘lsa, korxona soliq normasini buxgalteriya normasiga tenglashtirishi mumkin. Biroq to‘liq tenglashtirish faqat buxgalteriyada ham to‘g‘ri chiziqli usul qo‘llanganda va tugatish qiymati nolga teng bo‘lganda erishiladi. IAS 16 tugatish qiymatini amortizatsiya qilinadigan summadan chiqaradi, Soliq kodeksi esa uni hisobga olmaydi. Shu sababli tugatish qiymati muhim bo‘lgan aktivlarda farq to‘liq yo‘qolmaydi. Investitsiyaviy

chegirma esa Soliq kodeksining 308-moddasiga ko‘ra amortizatsiya xarajati deb e’tirof etiladi, ya’ni aktivning soliq bazasini kamaytiradi va soliq solinadigan farq yuzaga keltiradi.

1-jadval

Asosiy vositalar bo‘yicha vaqtinchalik farqlarning shakllanish holatlari

Holat	Me’yoriy asos	Vaqtinchalik farq	Kechiktirilgan soliq
Buxgalteriya normasi soliqdagi eng yuqori normadan yuqori	Soliq kodeksi, 306-modda; IAS 16, 50–62-bandlar	Chegiriladigan	KSA (24-band shartlari bajarilganda)
Buxgalteriya normasi soliqdagi eng yuqori normadan past	306-modda: pastroq norma huquqi	To‘g‘ri chiziqli usul va nol tugatish qiymatida yuzaga kelmaydi; aks holda qisman saqlanadi	Yo‘q yoki qisman
Qayta baholash (soliq bazasi o‘zgarmaganda)	IAS 16, 31–42-bandlar; IAS 12, 20, 61A-bandlar	Soliq solinadigan	KSM, boshqa umumlashgan daromad orqali
Investitsiyaviy chegirma, tezlashtirilgan amortizatsiya	Soliq kodeksi, 306, 308-moddalar (chegirma amortizatsiya xarajati deb e’tirof etiladi)	Soliq solinadigan	KSM
MHXS'ga o‘tishda shartli boshlang‘ich qiymat, komponentlar	IFRS 1, D5-band; IAS 16, 43, 51-bandlar	Soliq solinadigan yoki chegiriladigan	KSM yoki KSA

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Budjet mablag‘lari hisobiga yaratilgan aktivlar. Soliq kodeksining 304-moddasiga ko‘ra ustav kapitaliga hissa sifatida olingan mablag‘lar (1-band), Prezident yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida tekinga olingan mol-mulk (8-band) hamda 48-moddadagi talablar bajarilishi sharti bilan olingan grantlar va maqsadli tushumlar (9-band) daromad sifatida hisobga olinmaydi. 306-moddaning yettinchi qismiga ko‘ra maqsadli moliyalashtirishning budjet mablag‘lari hisobiga (10-band), shuningdek 304-moddaning 8, 9, 14 va 15-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag‘lar hisobiga (11-band) olingan aktivlar soliqda amortizatsiya qilinmaydi (O‘zR Soliq kodeksi, 2019). Ustav kapitaliga hissa (304-modda, 1-band) 11-banddagi ro‘yxatga kirmaydi. Demak, davlat mablag‘ining huquqiy shakli faqat uning MHXS bo‘yicha tasniflanishini emas, aktivning soliq bazasini ham belgilaydi.

MHXS bo‘yicha IAS 20 davlatning tashkilot mulkida ishtirok etishiga taalluqli emas (2(c)-band). Davlat mulkdor sifatida bergan mablag‘ xususiy kapitalda aks ettiriladi. Aktivlar bilan bog‘liq grant esa kechiktirilgan daromad sifatida yoki aktivning balans qiymatidan chegirish usulida taqdim etiladi (24–27-bandlar), nopul grant esa haqqoniy qiymatda yoki nominal summada aks ettirilishi mumkin (23-band). Kechiktirilgan daromad sifatida tan olingan grant majburiyatining soliq bazasi nolga teng, chunki grant summasi kelgusida soliqqa tortilmaydi (IAS 12, 8-band).

IAS 12 biznes birlashuvi bo‘lmagan va operatsiya paytida foydaga ta’sir qilmaydigan operatsiyada aktiv yoki majburiyatni dastlabki tan olishdan yuzaga keladigan kechiktirilgan soliqni tan olmaydi (15(b) va 24-bandlar). 2021-yilgi tuzatish bilan bu istisno operatsiya paytida teng miqdordagi soliq solinadigan va chegiriladigan farqlarni yuzaga keltiradigan operatsiyalarga qo‘llanilmaydigan qilindi (22A-band; IASB, 2021). Bunda ikkala farq bitta operatsiyada yuzaga kelishi shart. IAS 12 ning 33-bandi esa grant aktivning soliq bazasini kamaytirmaydigan, ya’ni O‘zbekistondagiga teskari vaziyatni nazarda tutadi, shu sababli uning xulosasini bevosita ko‘chirib bo‘lmaydi.

2-jadvalda qiymati 1000 shartli birlik bo‘lgan aktiv uchun hisob-kitob keltirilgan. Uning 600 birligi davlat mablag‘i, 400 birligi korxonaning o‘z mablag‘i hisobiga moliyalashtirilgan. Soddalashtirish uchun grant hisobiga olingan aktivning soliq bazasi budjet ulushiga proporsional kamayadi deb faraz qilindi.

2-jadval

Davlat mablag‘ining shakli va taqdim etish usulining kechiktirilgan soliqqa ta’siri (shartli misol, stavka 15%)

Variant	Aktivning BQ / SB	Vaqtinchalik farq	Kechiktirilgan soliq
1. Ustav kapitaliga hissa (SK 304-modda, 1-band; IAS 20, 2(c)-band)	1000 / 1000	Yo‘q	Yuzaga kelmaydi
2. Pul shaklidagi grant, kechiktirilgan daromad usuli (SK 304-modda, 9-band; IAS 20, 26-band)	1000 / 400; grant majburiyati 600 / 0	600 soliq solinadigan va 600 chegiriladigan, ikki alohida operatsiyada	Tan olinmaydi: har ikki farqqa dastlabki tan olish istisnosi qo‘llanadi (15(b) va 24-bandlar)
3. Natura shaklidagi grant haqqoniy qiymatda, kechiktirilgan daromad usuli (SK 304-modda, 8-band; IAS 20, 23-band)	1000 / 400; grant majburiyati 600 / 0	600 soliq solinadigan va 600 chegiriladigan, bitta operatsiyada	22A-band bo‘yicha KSM 90 va KSA 90; KSA 24-band shartiga bo‘ysunadi; 74-band shartlarida o‘zaro hisobga olinadi
4. Grant aktiv qiymatidan chegirilganda yoki natura grant nominal summada (IAS 20, 23, 27-bandlar)	400 / 400	Yo‘q	Yuzaga kelmaydi

Manba: muallif hisob-kitobi.

Keyingi davrlarda 2 va 3-variantlarda aktiv bo‘yicha farq amortizatsiya, grant bo‘yicha farq esa daromadga o‘tkazish hisobiga teng sur’atda kamayadi. Bu muvozanat aktiv qadrsizlanganda, grant qaytarilganda yoki aktiv muddatidan oldin hisobdan chiqarilganda buziladi. 2-variantda bunday o‘zgarishlar kechiktirilgan soliqda aks etmaydi (22(c)-band), 3-variantda esa KSM va KSA ni qayta baholashni talab qiladi.

Soliq zararlari va KSA. Soliq kodeksining 333-moddasi amaldagi tahririda zararlarni kelgusiga o‘tkazish uchun muddat yoki foiz cheklovini belgilamaydi. IAS 12 esa ular bo‘yicha KSA ni faqat kelgusida yetarli soliq solinadigan foyda bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lgan darajada

tan olishni talab qiladi, yaqin davrlarda zarar ko‘rgan tashkilot uchun esa ishonchli qo‘shimcha dalil talab qiladi (34–36-bandlar). Tariflari tartibga solinadigan va subsidiyalar hisobiga faoliyat yurituvchi korxonalarda kelgusi foyda tarif siyosatiga bog‘liq bo‘lgani uchun bu shartni asoslash qiyinlashadi. KSA tan olinmagan holatda tegishli chegiriladigan farqlar va foydalanilmagan soliq zararlari summasi 81(e)-band bo‘yicha ochib berilishi shart.

KSA va KSM harakatini hisobotda aks ettirish. KSA va KSM ning davr davomidagi o‘zgarishi kechiktirilgan soliq xarajati yoki daromadi sifatida foyda yoki zararda tan olinadi (58-band). Istisno sifatida, boshqa umumlashgan daromadda yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy kapitalda tan olingan moddalarga tegishli kechiktirilgan soliq ham shu yerda tan olinadi (61A-band). Masalan, 1-jadvaldagi qayta baholash bo‘yicha KSM boshqa umumlashgan daromad orqali shakllanadi. Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda KSA va KSM bir soliq organi oldidagi va o‘zaro hisobga olish huquqi mavjud bo‘lgan qismda sof summada ko‘rsatiladi (74-band). Izohlarda esa soliq xarajatining tarkibi (79–80-bandlar) hamda buxgalteriya foydasini qo‘llaniladigan stavkaga ko‘paytirish natijasi bilan soliq xarajati o‘rtasidagi muvofiqlashtirish (81(c)-band) ochib beriladi. Shu sababli KSA va KSM harakatini foyda yoki zarar, boshqa umumlashgan daromad va xususiy kapital bo‘yicha alohida yuritish zarur.

Muhokama

Natijalar adabiyotlardagi ayrim xulosalarni aniqlashtiradi. Kurbonov (2026) misolida buxgalteriya normasi soliq normasidan yuqori bo‘lgani uchun KSA muqarrar yuzaga keladi. Ushbu tadqiqot bunday natija faqat shu nisbatda o‘rinli ekanini ko‘rsatdi: buxgalteriya normasi past bo‘lganda korxona to‘g‘ri chiziqli usulda ikki amortizatsiyani asosan tenglashtirishi mumkin. Bu Nobes va Parker (2020) tavsiflagan moliyaviy hisobot va soliqqa tortish o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, Kvaal va Nobes (2010) aniqlagan milliy an'analar barqarorligiga ham mos keladi. Biroq MHXS'ga o‘tishda bu bog‘liqlik zaiflashadi: IFRS 1 bo‘yicha shartli boshlang‘ich qiymat, IAS 16 bo‘yicha komponentlarga ajratish va tugatish qiymati balans qiymatini o‘zgartiradi, soliq bazasi esa o‘zgarmaydi. Shu sababli Okenwa va boshqalar (2017) Nigeriyada qayd etgan kechiktirilgan soliq ko‘rsatkichlaridagi sezilarli o‘zgarish O‘zbekiston korxonalarida ham, asosan transformatsiya tuzatishlari orqali, kuzatilishi mumkin. Bu faraz empirik tekshiruvni talab qiladi.

Davlat mablag‘lari bo‘yicha natija amaliy jihatdan eng muhim hisoblanadi. Obidxonov (2026) milliy tizimda davlat subsidiyalari bo‘yicha kechiktirilgan soliq tan olinmasligini qayd etgan. Ushbu tadqiqot MHXS'ga o‘tishda natija uch omilga bog‘liqligini ko‘rsatdi: mablag‘ning huquqiy shakli (kapital hissasi yoki grant), berilish shakli (pul yoki natura) va grantni taqdim etish usuli. Aktiv qiymatidan chegirish usuli Soliq kodeksining 306-moddasi bilan uyg‘un bo‘lib, vaqtinchalik farqni bartaraf etadi va hisobni soddalashtiradi. Biroq u aktivlarning yalpi qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotni kamaytiradi, shuning uchun usul tanlovi hisobot foydalanuvchilari ehtiyojidan kelib chiqib asoslanishi lozim. Davlat korxonalarida transfer davlat tomonidan mulkdor sifatida amalga oshirilganmi yoki yo‘qmi, degan savol ham kasbiy muhokamani talab qiladi. Bunda birlamchi hujjat asosiy, ammo yagona bo‘lmagan dalil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asosiy vositalar bo‘yicha vaqtinchalik farqlar hajmi amortizatsiya normalari nisbati, usuli va tugatish qiymatiga bog‘liq. Budjet mablag‘lari hisobiga yaratilgan aktivlar bo‘yicha kechiktirilgan soliq mablag‘ning huquqiy va berilish shakli hamda grantni taqdim etish usuliga bog‘liq bo‘lib, grantlar orasida 22A-band faqat haqqoniy qiymatda aks ettirilgan natura shaklidagi grantlarga qo‘llanadi.

Shu asosda korxonalarga quyidagilar tavsiya etiladi: soliq bazasi reestrini MHXS ma’lumotlaridan mustaqil yuritish; asosiy vositalar reestrida moliyalashtirish manbasi, budjet ulushi va berilish shaklini qayd etish; KSA va KSM harakatini foyda yoki zarar, boshqa umumlashgan daromad va xususiy kapital bo‘yicha alohida yuritish; aktivlar bilan bog‘liq grantlarni taqdim etish usulini hisob siyosatida asoslangan holda belgilash; davlat korxonalari uchun budjet mablag‘larini IAS 20 bo‘yicha tasniflash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma tayyorlash taklif qilinadi. Soliq ma’muriyati darajasida esa foyda solig‘i hisob-kitobida budjet mablag‘lari hisobiga yaratilgan aktivlarni alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Görlitz, A. va Dobler, M. (2023). Financial accounting for deferred taxes: a systematic review of empirical evidence. Management Review Quarterly, 73(1), pp. 113–165. DOI: 10.1007/s11301-021-00233-w.
2. Hanlon, M. va Heitzman, S. (2010). A review of tax research. Journal of Accounting and Economics, 50(2–3), pp. 127–178.
3. IASB (2021). Deferred Tax related to Assets and Liabilities arising from a Single Transaction (Amendments to IAS 12). London: IFRS Foundation.
4. IASB (2023a). IAS 12 Income Taxes. London: IFRS Foundation.
5. IASB (2023b). International Tax Reform—Pillar Two Model Rules (Amendments to IAS 12). London: IFRS Foundation.
6. IASB (2023c). IFRS Accounting Standards: IAS 16; IAS 20; IFRS 1. London: IFRS Foundation.
7. Kurbonov, B.E. (2026). Moliyaviy hisob va soliq hisobi o‘rtasidagi tafovutlarni muvofiqlashtirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 18(B), pp. 154–157. DOI: 10.54613/ku.v18iB.1699.
8. Kvaal, E. va Nobes, C. (2010). International differences in IFRS policy choice: A research note. Accounting and Business Research, 40(2), pp. 173–187.
9. Nobes, C. va Parker, R. (2020). Comparative International Accounting. 14-nashri. Harlow: Pearson.
10. Obidxonov, X.X. (2026). O‘zbekistonda kechiktirilgan soliq majburiyatlarining buxgalteriya hisobi uslubiyotini takomillashtirish masalalari. International Finance & Accounting, 1-son, pp. 1–6.
11. Okenwa, O.C., Egbunike, F.C. va Abiahu, M-F.C. (2017). Assessment of deferred tax recognition and measurement under IFRS and Nigeria-SAS: An empirical examination. Asian Journal of Economics, Business and Accounting, 5(1), pp. 1–21.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024a). 5-son BHMS "Asosiy vositalar". 2024-yil 14-iyundagi 133-son buyruq, ro‘yxat raqami 3546.

13. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024b). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlik yangiliklari, 09.07.2024. URL: https://gov.uz/imv/news/view/16015
14. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2026). Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari. 2026-yil 6-maydagi 362-son buyruq, ro‘yxat raqami 3854.
15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyruqqa 7-ilova: IAS 12 «Foyda soliqlari”. Ro‘yxat raqami 3400, 09.12.2022.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida". 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaror.
17. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019). O‘RQ-599-son, XII bo‘lim "Foyda solig‘i" (2026-yil 1-yanvardan amaldagi tahrir). URL: https://lex.uz/docs/4674902
18. Phillips, J., Pincus, M. va Rego, S.O. (2003). Earnings management: New evidence based on deferred tax expense. The Accounting Review, 78(2), pp. 491–521.